



UDK: 94(575.1)

Sharofitdin NURMUXAMMADOV,
Sarboon universiteti "Filologiya va ijtimoiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi

Tarix fanlari doktori(DSc), dotsent D.Abdullayev taqrizi asosida

O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDA VALIAHD SHAHRI MAQOMI (XVI-XVII ASRLAR)

Annotatsiya

Mazkur maqolada XVI–XVII asrlarda O‘zbekiston davlatchiligi tarixida “Valiahd shahri” maqomining siyosiy, ma‘muriy va madaniy ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqotda shaharlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni, ularning markazlashuv jarayonlaridagi funksiyasi hamda hukmronlik legitimligini mustahkamlashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, Buxoro va boshqa siyosiy markazlarning “valiahd” maqomida tutgan o‘rni, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy jarayonlarga ko‘rsatgan ta‘siri ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston davlatchiligi, valiahd shahri, XVI–XVII asrlar, siyosiy markaz, poytaxt, hukmronlik, markazlashuv, Buxoro xonligi, shayboniylar, janidlar, ma‘muriy tizim, shahar madaniyati, tarixiy jarayonlar, legitimlik.

THE STATUS OF THE CROWN CITY IN THE HISTORY OF UZBEKISTAN STATESHIP (XVI-XVII CENTURIES)

Annotation

This article analyzes the political, administrative and cultural significance of the status of the “Crown City” in the history of Uzbek statehood in the XVI-XVII centuries. The study highlights the role of cities in state administration, their function in the processes of centralization and their role in strengthening the legitimacy of rule. Also, the role of Bukhara and other political centers in the status of the “crown city”, their influence on socio-economic and ideological processes is analyzed on a scientific and theoretical basis.

Key words: Uzbek statehood, crown city, XVI-XVII centuries, political center, capital, rule, centralization, Bukhara Khanate, Shaybanids, Janids, administrative system, urban culture, historical processes, legitimacy.

СТАТУС КОРОННОГО ГОРОДА В ИСТОРИИ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА (XVI–XVII ВВ.)

Аннотация

В статье анализируется политико-административное и культурное значение статуса «коронного города» в истории узбекской государственности XVI–XVII вв. В исследовании освещается роль городов в государственном управлении, их роль в процессах централизации и укреплении легитимности правления. Также на научно-теоретической основе анализируется роль Бухары и других политических центров в статусе «коронного города», их влияние на социально-экономические и идеологические процессы.

Ключевые слова: Узбекская государственность, коронный город, XVI–XVII вв., политический центр, столица, правление, централизация, Бухарское ханство, шейбаниды, джаниды, административная система, городская культура, исторические процессы, легитимность.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekistonda demokratik fuqarolik davlati barpo etish, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash maqsadida keng miqyosli islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Ana shu islohotlar va o‘zgarishlar bilan bir qatorda el-yurt, xalqning porloq kelajagining kafolati bo‘lgan barkamol avlod tarbiyasiga katta e‘tibor qaratilgan. Shu bilan birga, mamlakatimiz xalqining ko‘p ming yillik madaniyati, milliy qadriyatlarini va urf-odatlarini tiklash hamda fuqarolarda o‘zlikni anglash xalqimizning boy moddiy va ma‘naviy merosini tiklash abrab-avaylash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Aynan mana shu vaziyatda tarix fanining ahamiyati kattadir. Bu borada Prezident Islom Karimovning “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q” [1], degan fikri o‘rinlidir. Zero, tarix va ayniqsa, Vatan tarixini bugungi va kelgusi avlod uchun saboqdir.

Vatanimiz tarixi shayboniylar va ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrini o‘rganish, o‘sha davr voqea-hodisalarini, davlat negizini tashkil etgan siyosiy, ma‘muriy va boshqaruv tizimini haqqoniy o‘rganish, ayniqsa Buxoro xonligining valiahdlik tizimini tahlil qilish bugungi tarix fanining dolzarb mavzularidan hisoblanadi.

Shayboniy Abdulmo‘min o‘ldirilgandan keyin (1598-yil yozi) Movarounnahrda boshlangan o‘zaro toju taxt kurashlari kuchayishi natijasida shimol tarafdin Tavakkalxon

boshchiligida qozoqlar bostirib kirdi. Shu kezlarda Buxoro amirlari orasida yakdillik bo‘lmadi. Ular ikki guruhga ajralib ketdilar: bir guruhi – Ollohberdi ko‘kaldosh, Qosim hoji keroit, Avaz eshikog‘asi, Valibek hoji, Mansur hoji tarxon va boshqalar Ibodulla sulton (Abdullaxonning ukasi)ning 17 yosh o‘g‘li Abdulamin sulton (1580-1600)ni olib Balxga qarab ketdilar va o‘sha joyda uni xon qilib ko‘tardilar. Amalda esa Balx hokimiyati yosh xonning onasi Jahon sulton xonim qo‘liga o‘tdi. Boshqa bir guruhi – Xudoynazarbiy, Do‘stim Chuhra og‘asi va boshqalar Abdulmo‘min qirg‘ini (Abdulmo‘min otasining ko‘plab tarafdorlari va sulola vakillarini qatl qilgan edi)dan omon qolgan Pirmuhammadni uch o‘g‘li bilan birga olib kelib, o‘zini shayboniylarning oliy xoqoni deb e‘lon qildilar. Hirotda esa hokimiyatni ashtarxoniylardan Yor Muhammadxon (Jo‘chining o‘n uchinchi o‘g‘li To‘qay Temur avlodidan)ning nabirasi Din Muhammadxon egalladi. Ilgari u Seyistonni Abdullaxon nomidan idora qilgan. 1586-yildan keyin esa Jom viloyatini boshqargan, undan so‘ng o‘sha hududda bobosi Yor Muhammadxonni xon deb e‘lon qildi [2].

1598-1601-yillarda Balxda Abdulamin sulton (1598-1600), Ibrohim sulton (1600-1601)lar hokimlik qildilar. Ibrohim sulton shayboniylardan Suyunch Muhammad sultonning o‘g‘li bo‘lib, ungacha shoh Abbas I (1587-1629) saroyida Isfahonda istiqomat qildi. Ibrohim sulton

keyinchalik, xalqqa, shuningdek, amaldorlarga ham zulm qilgan [3]. Ular Samarqand hokimi Boqi Muhammadxon va uning ukasi Vali Muhammadlarga yordam so'rab murojaat qilishga majbur bo'ldilar. Boqi Muhammadxon to'xtovsiz Balx ustiga qo'shin tortdi. Bu yurish 1601-yilning iyulidan sentabrigacha davom etdi. Ashtarxoniyalar qo'shinining Amudaryoning so'l sohilida paydo bo'lishi hammani sarosimaga soldi. Amirlar Balxdan ikki farsax (12-16 km) shimolda joylashgan Siyohjird qishlog'ida Ibrohimxondan yuz o'girdilar. Zamondosh tarixchi shunday yozadi: "Ikki lashkar bir-biriga qarshi saf tortgan bir paytda Boqi Muhammadxon bilan jang qilgani chiqqan Balxning har bir amiri va botiri qilich va qalqonni bo'yniga osib Boqi Muhammadxon uzangisini o'pishga shoshildilar. Bu ham yetmaganday, ular Ibrohimxonni tutib, boshini tandan judo qildilar va Boqi Muhammadxon oti oyog'i ostiga tashladalar". Balxning e'tiborli amirlari Nazarbiy va Shukurbiy shahar darvozalarining kalitini olib chiqib, shaharni ashtarxoniyalarga taslim qildilar. Shunday qilib, 1601-yilning dekabr oyida Balx ashtarxoniyalar qo'liga o'tdi. Shu yerda Yor Muhammadxonning o'g'li Joni Muhammadxon nomiga xutba o'qilib, oliy hukmdor deb e'lon qilindi, Balx shahri hokimligiga esa Vali Muhammadxon tayinlandi [4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yusuf Munshiyning "Muqimxon tarixi"da keltirilishicha, bunga quyidagi voqea sabab bo'lgan: "Boqiy Muhammadxon bilan Vali Muhammadxon kofirlardan (safaviylar nazarda tutilgan. – A.Z.) yengilib, Movarounnahrqa yaqinlashganlarida Buxoro amirlari Din Muhammadxonning qizilboshlar bilan bo'lgan jangda o'ldirilgani xabarini eshitdilar. Uning ikki ukasi Movarounnahrqa yetib keldi. Buni yaxshilikka yo'yib, shukr qilib, Buxoro amirlari shahzodalar qarshisiga peshvoz chiqdilar va o'sha kuniyoq Boqiy Muhammadxon boshiga toj qo'ydilar. Vali Muhammadxonni valiahd etib tayinlab, qubbat ul-islom Balx viloyatiga jo'natdilar" [5].

Boqi Muhammadxon yuqoridagi voqealardan so'ng Buxoro xonligi taxtiga asosiy da'vogar edi. Tez orada u xonlik taxtini egalladi. Uning taxtga o'tirishi haqida "Tarixi Muqimxoniy" asarida shunday ma'lumot beriladi: "Boqi Muhammadxonning Buxoroga kelishi katta tantana bilan qarshi olindi. 1008-yilda (1601) uning nomiga xutba o'qilgan va xonlik taxtiga o'tirib hukmronlik tojini kiyan. Bu tantanalarda Boqi Muhammadxonning ukasi Vali Muhammadxon ham faol ishtirok etadi va unga Balx hududlari hukmronligi in'om etildi" [6].

XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Movarounnahr siyosiy hayotida murakkab jarayonlar kechdi. Xususan, Vali Muhammadxon hukmronligi davrida (1602–1607) ichki siyosiy beqarorlik, tashqi tahdidlar va amaldorlar o'rtasidagi ziddiyatlar Buxoro xonligining siyosiy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Eron shohi Abbas I (1587–1629) bu davrda Buxoro xonligidagi vaziyatdan foydalanishga urindi. U Balx viloyatini egallash va shu orqali ashtarxoniyalar hokimiyatiga zarba berish niyatida 40 ming kishilik qizilbosh qo'shini bilan Movarounnahrqa bostirib kirdi. Ammo 1602-yil iyul oyida Amudaryo bo'yida, Puli Xatab jangida Boqi Muhammad va Jonibek Sulton qo'shinlari tomonidan tor-mor etildi. Eron lashkaridagi oziq-ovqat taqchilligi sabab Abbas I orqaga chekinishga majbur bo'ldi.

Vali Muhammadxon siyosatida muhim choralaridan biri shahzodalar ustidan nazoratni kuchaytirish bo'lib, u Imomquliga Nodirbiy Orlotni, Nadr Muhammadga esa Yalango'shbiy Olchinni otaliq etib tayinladi. Biroq bu siyosat shahzodalarni siyosiy jihatdan cheklash va hokimiyatni markazlashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, amirlar orasida norozilikni kuchaytirdi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). XVI–XVII asrlarda O'zbekiston hududida shakllangan siyosiy

jarayonlarda Balx viloyati alohida strategik va siyosiy ahamiyat kasb etgan. Xususan, Vali Muhammadxon hukmronligi davrida (1601–1611) Balx shahrining valiahd shahri sifatidagi o'rni yanada mustahkamlandi. Bu davrda Eron shohi Abbas I (1587–1629) tomonidan Movarounnahrda siyosiy beqarorlikdan foydalanish maqsadida Balxni egallashga urinishlar bo'lgan. 1602-yilda Puli Xatab jangida Eron qo'shini mag'lubiyatga uchrach, Vali Muhammadning hokimiyati vaqtincha mustahkamlandi.

Vali Muhammad yosh shahzodalar Imomquli va Nadr Muhammadlarni nazoratda ushlab turish maqsadida ularga otaliqlar tayinlaydi. Ammo bu siyosat amirlar orasida norozi kayfiyatni kuchaytiradi. Natijada, Buxoro va Balx amaldorlari o'rtasidagi ziddiyatlar Vali Muhammadga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytiradi. 1606-yilda Nadr Muhammad Balx hokimi etib tayinlanadi, 1607-yilda esa Balxda siyosiy beqarorlik tufayli Eron bilan sulh imzolinishi xonning mavqeini zaiflashtiradi.

1608-yilda Imomqulixon Balxdan Buxoroga yurish boshlaydi. Vali Muhammad esa bu harakatni "umaro muxolifati" sifatida baholab, Eronga qochishga majbur bo'ladi. Shunga qaramay, u Balxda diniy-ma'naviy inshootlarni, jumladan, Shayx Xoja Porso va Xoja Hayron qadamjolarini obod etish, ularga vaqf ajratish ishlari bilan shug'ullangan.

Imomqulixon dastlab Samarqand hokimi etib tayinlanib, keyinchalik Balxni nazoratga olgan. U o'z faoliyati davomida markazlashgan boshqaruvi mustahkamlashga intilgan. Shu davrda Vali Muhammadning jiyani Nadr Muhammad ham siyosiy jihatdan faol bo'lib, 1606–1642-yillarda Balx hokimi, 1642–1645-yillarda esa Buxoro xoni sifatida faoliyat yuritgan.

Imomquli va Nadr Muhammad aka-ukalar sifatida o'zaro hamkorlikda Buxoro xonligining siyosiy va harbiy qudratini mustahkamlashda muhim rol o'ynaganlar. Ular qozoqlarga qarshi yurishlarda, xususan, Toshkent va Turkiston yo'nalishlaridagi janglarda faol ishtirok etganlar. Biroq Vali Muhammadning siyosiy fitnasi oqibatida u taxtdan ag'darilib, Eronga qochadi va qaytish jarayonida mag'lubiyatga uchrab halok bo'ladi.

Shundan so'ng, Balx Nadr Muhammad boshqaruvi ostida mustaqil harbiy-ma'muriy markaz sifatida faoliyat yuritadi. Imomqulixon "katta xon", Nadr Muhammad esa "kichik xon" sifatida tan olinadi. Balx shahri shu davrda nafaqat harbiy-siyosiy, balki diniy-ma'naviy markaz sifatida ham Buxoro xonligining siyosiy tizimida alohida o'rin egallaydi.

Tahlil va natijalar(Analysis and results). Imomqulixon Buxoroga qaytgach, yana uzoq yil farovon hukmdor sifatida saltanat surdi. Xon 1640-yilda kasalga chalilib, ko'zi ojiz bo'lib qolgach, haj ziyoratini maqsad qilib, hokimiyatni topshirish uchun Balxdan ukasi Nadr Muhammadni chaqirtirgan. Nadr Muhammad Buxoroga yetib kelgach, Imomqulixon yana bir hafta Buxoroda qolib, juma kuni masjidda o'z huzurida Nadr Muhammad nomiga xutba o'qitiradi va ta'sirlanib, barcha yig'ilganlarni yig'latadi. Shundan so'ng, poytaxtni tark etib, Eron orqali Makkaga yo'l oladi. Bundan ko'rinib turganidek, aka-ukaning bir-biriga ehtiromi juda yuqori bo'lgan. Shuningdek, Imomqulixon o'g'li va nabiralari bo'la turib, hokimiyatni ukasiga topshirishi davr taomiliga ko'ra, taxt boshqaruvida xonadon vakillarining yoshi ulug'i kelishi kerak bo'lganligi edi.

Nadr Muhammadxon davlatni boshqarishda akasi erishgan yutuqlarni takrorlay olmadi. Xususan, u xonlik hududlarini o'z o'g'illari va nabiralari suyurg'ol qilib taqsimlab berdi. Xususan, Abdulazizga Samarqand, Xusrav Sultonga Badaxshon va Qunduz, Subhonquli Sultonga Balx, Qutlug' Muhammad Sultonga Hisor, Abdurahmon Sultonga Shibirg'on va Andxo'y, nabirasi Qosim Sultonga Huzor,

jiyanlari Muhammadyor Sultonga Shahrisabz, So'fi Sultonga Talixon hududlarini boshqarish huquqi beriladi. Bu esa markaziy hokimiyatning kuchsizlanishiga olib keladi.

Garchi Nadr Muhammadxon xonlik davrida akasidek e'tirof etilmagan bo'lsa-da, mamlakat obodonchiligi yo'lida ma'lum ishlarni amalga oshirgan edi. Xususan, uning tashabbusi bilan Balxda madrasa bunyod etilgan, uning atrofida chorbog'lar, Balx arkidagi imoratlar, hazrati Ali mozoridagi gumbaz hamda boshqalarni aytish mumkin. Bundan tashqari u Balx hokimi davrida tarixchi, olim, sayohatchi Mahmud ibn Valiga asar yozish topshirig'ini beradi. O'rta asrlardagi xonliklar, hukmdor va sulolalar, joy nomlari haqida mufassal ma'lumot beruvchi, yetti qismdan iborat "Bahr ul-asror" asarini Mahmud ibn Vali 1634-1641-yillarda yozadi.

Yuqoridagilardan kelib chiq, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Balx tarixan Movarounnahr va Eron o'rtasida muhim strategik nuqta bo'lgan. Shaharda hokimiyatning markazlashuvi va u erdagi siyosiy o'zgarishlar xonlikdagi taxtni saqlash uchun juda katta ahamiyatga ega edi. Balxning valiahd shahri bo'lishi, uning barcha siyosiy va harbiy ahamiyatini kuchaytirdi.

Balxdagi hokimiyat kurashlari shaharning valiahd shahri sifatidagi rolini yanada kuchaytirdi. Vali Muhammadxonning taxtdan ag'darilishi va keyinchalik Balxni qaytarish uchun kurashlari, shuningdek, Imomqulixon va Nadr Muhammad o'rtasidagi kurashlar shahar taxti uchun muhim va ta'sirchan bo'lganligini ko'rsatadi.

Abdulazizxon va Subhonqulixon o'rtasidagi kurashlar xonlikda siyosiy muvozanatsizlik yaratdi. Ikkala shahzoda o'rtasidagi nizolar, natijada, taxtga erishishda davom etgan kurashni keltirib chiqardi.

Balxning valiahd shahri sifatida tan olish jarayoni xonlikdagi siyosiy tizimni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu shaharning taxt uchun kurashdagi markaziy o'rni, shuningdek, siyosiy boshqaruv tizimidagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli, Balxni valiahd shahri sifatida tan olish, uning Movarounnahr va Eron o'rtasidagi muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz bo'lishi nuqtai nazaridan to'g'ri va adolatli baholanadi.

Xulosa va takliflar. XVI–XVII asrlarda O'zbekiston davlatchiligi tarixida Balx shahri nafaqat iqtisodiy va harbiy markaz, balki siyosiy hokimiyatning muhim tayanch nuqtasi sifatida shakllandi. Aynan ushbu davrda Balx valiahd shahri maqomini egallab, davlat boshqaruvida muhim rol o'ynadi. Vali Muhammadxon, Imomqulixon va Nadr Muhammadxonlar davridagi siyosiy jarayonlar Balxning strategik va mafkuraviy ahamiyatini yanada oshirdi. Vali Muhammadning Eron bilan olib borgan siyosiy kurashlari, amirlar o'rtasidagi nizolar hamda uning diniy-ma'rifiy faoliyati Balxni siyosiy markaz sifatida mustahkamladi. Keyinchalik Imomquli va Nadr Muhammad aka-ukalar tomonidan olib borilgan islohotlar, harbiy yurishlar va davlat boshqaruvidagi barqarorlik siyosati bu shaharning "kichik xonlik" sifatidagi o'rmini mustahkamlab, Buxoro xonligi siyosiy tizimida valiahdlik an'anasini shakllantirdi. Natijada, Balx shahri ashtarxoniyalar davrida siyosiy merosxo'rlik tizimining markaziga aylangan, O'zbekiston davlatchiligi tarixida hukmronlikning vorisiylik tamoyillari rivojiga, davlat boshqaruvi barqarorligining saqlanishiga zamin yaratgan. Shu ma'noda, Balx shahri va undagi valiahdlik institutining faoliyati o'rta asr Movarounnahr siyosiy tarixining ajralmas qismi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 4-bet.
2. Алексеев А.К. Политическая история Тукай-Тимуридов.- С.-Петербург: С.-Петербургского Университета 2006. – С. 95-96; Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O'qituvchi, 1994. 189-b.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O'qituvchi, 1994. 189-b.
4. Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история. Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели профессора Семёнов А.А.- Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1956. - С 74-75
5. Muhammadyor ibn Arab Qatag'on. Musaxxir al-bilod. / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi I.Bekjonov va D.Sangirova. – T.: Yangi asr avlodi 2009. 186-187-b.
6. Arminiy Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Ikkinchi jild. / Rus tilidan tarjima va izohlar muallifi Sirojiddin Ahmad. T.: Info capital group, 2019. 114-b.
7. Mirzo Salimbek. Kashko'li Salimiy. Tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin. / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi N.Yo'ldoshev. Buxoro:Buxoro nashriyoti, 2003. 276-b.
8. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi. T.: Sharq, 2001. 264-b.
9. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX вв.). Ответ. редактор Д.Алимова. – Т.: Фан, 2012. – С. 584.